



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 733 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilduza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiқ qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilhomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O'ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G'ayratjon Raximovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI	414
Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li	
OLIY IQTISODIY TA'LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR	418
Xasanova Zarina Maxamadaliyeva	
XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI.....	427
Narzullaev Oybek Narzullaevich	
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI.....	433
Axmedjanov Abdufoto	
KENDALL VA SPEARMAN TARTIBIY KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT INDIKATORLARINING STATISTIK O'ZARO TA'SIRINI MODELASHTIRISH	437
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
ИНТЕНСИВНЫЕ И ЭКСТЕНСИВНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ СПРОСА.....	442
Аминджанова Румейса Батыровна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД В ТУРИЗМЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И УЗБЕКСКАЯ ПРАКТИКА	445
Азимова Шахло Таировна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XAQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING HOLATI VA TAHLILI	450
Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich	
UZUM EKSPORT QILUVCHI KOMPANIYALARDA YASHIL O'TISH JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN EKO-MARKETING VA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI INTEGRATSIYALASH.....	454
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINING TAHLILI: OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNING YANGICHA USULLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	461
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	
INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	467
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	



FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA'MINLASH	470
Turdikulova Gulshad Nurmamatovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI.....	477
Uztemirov Alisher Aktam o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	482
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
XORIY TAJRIBALARIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH TARTIBI METODOLOGIYASINING MAVJUD METODLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	489
Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	496
Ramatillaev M.R.	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SUG'URTALASH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	502
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI BAHOLASH VA KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	506
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
XALQARO REYTING TASHKILOTLARINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TA'SIRI VA MAVJUD PLATFORMALAR.....	515
O'rozboyev Xayrulla Murodboy o'g'li	
TALABALAR MOTIVATSIYASINING MEKANIZMLARI: LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDA.....	523
Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna	
ISH KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA NORASMIY BANDLIKNI SOYADAN CHIQRISH BO'YICHA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH	531
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Maxkamova Shaxlo Yulchiyevna, Absamatov Baxrom Danakulovich	
KASBIY TA'LIM MAZMUNIDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI RAG'BATLANTIRISH ORQALI O'RTA BO'G'IN KADRLAR TAYYORLASHNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	538
Tojiyev Sirojiddin Sayriddinovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH TIZIMINING TURLARI VA SHAKLLARI.....	542
Muminova Mavjuda Sharifovna	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGI MASALALARI	547
Kadirkhodjayeva Nilufar Rahmatullayevna	
MHXSGA MUVOFIQ ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	552
Aliyev Sherzod Abdixomidovich	
ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	558
Аллаева Г.Ж.	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH YO'NALISHLARI	564
Irisqulova Munisa Akmal qizi	
TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARI DOIRASIDA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TAHLILI	569
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
MINTAQA SANOATIDA AHOLI JON BOSHIGA YAQQ O'ZGARISHINING DINAMIK TAHLILI.....	574
Nabiyev G'ulom Abdusalomovich	



INFRATUZILMAVIY INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI	583
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В ЭКОЛОГИИ.....	587
Максудова Шахиста	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	593
B.Sh.Shadmanov	
ECONOMIC INDICATORS OF SUPPLY CHAIN EFFICIENCY IN UZBEKISTAN'S EXPORT SECTOR	597
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI VA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	602
Muxtorova Maftuna Salohiddin qizi	
RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BANKLARNING XAVFSIZLIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI	607
Aliyeva Umidaxon Xusanboyevna	
XIZMATLAR SOHASI VA KAMBAG'ALLIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	611
Dawletmuratov Adilbay Mirzabaeovich	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL CLUSTERS BASED ON THE PRINCIPLES OF A "GREEN ECONOMY"	615
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Kamolov Oybek Faxriddin o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	620
Халимжанов Дилшод Эргашбекович	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	626
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
NAMANGAN VILOYATI TURIZM SOHASINING SO'NGGI YILLARDA RIVOJLANISHI VA STATISTIK TAHLILI	630
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR TAHLILI	634
Faxriddinov Bahriddin	
INNOVATSION SHAROITDA TO'QIMACHILIK SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	640
Sattarov Ilkhomjon Rahimjanovich	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	645
Nurmatov Norbek Jo'rayevich	
MINTAQA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION VA INSTITUTSIONAL ISTIQBOLLARI	652
Xalimov Javlonbek Shaxriyrovich	
KORXONALARNING BANKROTLIK EHTIMOLINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA PROGNOZLASH	659
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ	665
Шомуродов Равшан Турсункулович	
MEDIA LOYIHALARINI BOSHQARISH: O'ZBEKISTON OAV AMALIYOTI TAHLILI	673
Yo'ldosheva Dilobar Jaxongir qizi	
O'QITISH NATIJALARINI ZAMONAVIY BAHOLASH TAMOYILLARI	677
Abdullayeva Sanobar Berdiyevna, Xujakulov Shaxriyor Shokir o'g'li	
MALAYZIYADA PROGRESSIV VA INKLYUZIV ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: 2024-YIL TAJRIBASI VA NATIJALARI	681
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПРОВЕДЕНИЯ ПРОЦЕДУР ДЬЮ-ДИЛИДЖЕНС В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ.....	687
Прокудина Кристина Александровна	
HUDUDLARDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	692
Xalilova Madinabonu Abduraxmon qizi	
LIZING MUOMALALARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	701
Baxadirov Alisher Komilovich	
TIJORAT BANKLARINING JISMONIY SHAXSLAR DEPOZITLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	705
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKOTIZIMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	711
Erkinova Feruza Najmitdinovna	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI BAHOLASHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH: XAVF YOKI IMKONIYAT	717
Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Tadiyev Erkin Muxitdinovich	
SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING TO'QIMACHILIK SANOATIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	723
Raximov Furqat Jalolovich	
OLIY TA'LIM MASSASALARINING MOLIYAVIY RESURLARINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	728
Mahmudov Akbar Abduxamidovich	



OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY RESURLARINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mahmudov Akbar Abduxamidovich

dotsent v. b. Iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar kafedrası
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirishga doir yondashuvlar keltirilgan. Zamonaviy sharoitda moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish oliy ta'limni isloh qilish va uning samarali rivojlanishini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqolada ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlariga turli yondashuvlarning batafsil tavsifi berilgan, moliyaviy, statistik va prognoz ma'lumotlar asosida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmining ta'siri tahlil qilingan hamda moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy usullari ishlab chiqilgan. Resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanish oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, moliyalashtirish, moliya, mexanizm, ta'lim xizmatlari bozori, budjetlashtirish, moliyaviy resurslar, investitsiya vositasi, innovatsion ta'lim texnologiyasi, standartlar, mezonlar, o'quv jarayoni, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash, model, xalqaro hamkorlik.

Abstract. This article presents approaches to studying the improvement of the mechanism for managing financial resources in higher educational institutions. In modern conditions, targeted management of financial resources is one of the priority areas for reforming higher education and developing the most effective development. The article provides a detailed description of various approaches to the mechanism of financing educational institutions, analyzes the influence of financial, statistical and forecast information of the mechanism for managing financial resources, and develops the main ways to increase the efficiency of targeted use of financial resources. It has been determined that the correct and targeted use of resources contributes to increased modernization of higher education, development of the social sphere and economic sectors based on advanced educational technologies.

Key words: higher education institution, financing, finance, mechanism, market for educational services, budgeting, financial resources, investment instrument, innovative educational technology, standards, criteria, educational process, education system, training, model, international cooperation.

Аннотация. В данной статье приведены подходы по изучению совершенствования механизма управления финансовыми ресурсами высших учебных заведений. В современных условиях целенаправленное управления финансовыми ресурсами является одним из приоритетных направлений реформирования высшего образования и развития наиболее эффективного развития. В статье дана подробная характеристика различных подходов к механизму финансирования учебных заведений, проведена анализ влияния финансовых, статистических и прогнозируемых информации механизма управления финансовыми ресурсами, разработаны основные пути повышения эффективности по целенаправленного использования финансовых ресурсов. Определено что правильное и целенаправленное использование ресурсов способствует к повышению модернизации высшего образования, развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, финансирование, финансы, механизм, рынок образовательных услуг, бюджетирование, финансовые ресурсы, инвестиционный инструмент, инновационная образовательная технология, стандарты, критерии, учебный процесс, система образования, подготовка кадров, модель, международное сотрудничество.



KIRISH

Oliy ta'lim sohasidagi moliyaviy boshqaruv sifatli ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda yangi yondashuvlar va zamonaviy o'qitish metodlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini zamonaviy bilimlar va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar asosida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida" [1] O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. I. Liefner o'z tadqiqotlarida universitet tizimlarida resurslarni taqsimlash samaradorligi davlat va bozor mexanizmlarining uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, resurslarni natijaga yo'naltirilgan tarzda boshqarish oliy ta'lim sifatini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Jahon Banki mutaxassislari olib borgan tahlillarda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun avtonomiyani kengaytirish, shaffof budjet tizimlarini joriy etish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi qayd etiladi. Ularning "Higher Education for Development" nomli hisobotida moliyaviy boshqaruvni strategik rejalashtirish bilan integratsiyalash universitetlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlangan.

OECD tomonidan tayyorlangan "Benchmarking Higher Education System Performance" hisobotida esa byudjetlashtirish va hisobot tizimlarini raqamlashtirish, shuningdek, ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali ta'lim muassasalarining resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatiladi. OECD ekspertlari bu jarayonda xalqaro standartlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish muhimligini qayd etgan.

Yevropa universitetlari tajribasini o'rgangan N. Matveeva o'z tadqiqotlarida samaradorlikka asoslangan moliyalashtirish (performance-based funding) tizimi ijobiy natijalar bilan bir qatorda, ba'zan noxolis raqobat va strategik xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bois bunday mexanizmlar faqat sifat kafolati tizimlari bilan uyg'un holda joriy etilganda samara beradi.

Ye.G. Kuproning fikriga ko'ra, "Global jarayonlarning kuchayishi va bilimlar iqtisodiyoti shakllanayotgan hozirgi sharoitda oliy ta'lim sohasida moliyaviy boshqaruv usullarini takomillashtirish va yangilash ta'limni rivojlantirish jarayonining zarur bosqichiga aylanmoqda" [4]. Muallifning ushbu fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliyaviy islohotlar ham o'ziga xos e'tibor hamda tizimli moliyaviy boshqaruvni talab etadi.

"Ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimini o'zgartirish yo'nalishlari" maqolasi mualliflari M.V. Alikaeva va T.A. Nalchadjining fikriga ko'ra, "Ta'lim muassasasining moliyaviy boshqaruv tizimini moliyaviy munosabatlarni tashkil etish turlari va shakllari, shuningdek, moliyadan, jumladan davlat moliyasidan foydalanish usullarining yig'indisi sifatida tasavvur qilish mumkin. Bu esa ta'lim muassasasining moliyaviy siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydi hamda rivojlanishning strategik va taktik maqsadlariga erishishga qaratilgan" [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun moliyaviy avtonomiyani oshirish, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etish, shaffof budjetlashtirish va ichki audit mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, raqamli boshqaruv vositalarini keng qo'llash zarur. Bunday yondashuvlar nafaqat resurslardan oqilona foydalanishni, balki ta'lim sifatining barqaror o'sishini ham ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy o'quv yurtlarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini aniqlash va ularning ahamiyatlilik darajasini belgilash fundamental ilmiy tadqiqot metodologiyasiga, jumladan, induksiya va deduksiya, dialektik birlik, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, taqqoslash hamda analogiya usullariga asoslanadi. Tadqiqotda iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishda oliy o'quv yurtlarida moliyaviy resurslarni boshqarish xususiyatlari va muassasalar istiqbolli rejalarini tuzishda ularning rolini oshirishga doir fikrlarni nazariy tahlil qilish imkonini beruvchi tizimli yondashuvdan foydalanildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishdagi birinchi qadam budget shaffofligini mustahkamlash bo'lishi kerak. Bu esa budget mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash uchun hisobot hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Aniq tuzilma va ishlab chiqilgan budget nazorati tartib-qoidalarini universitetlarga moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

O'zbekistonda 2024-yilgi Davlat budgeti loyihasida ijtimoiy xarajatlarning katta qismi (46%) ta'lim sohasiga yo'naltirilishi rejalashtirilgan. 2024-yilda ta'lim sohasiga 69 076,2 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu joriy yildagi kutilayotgan ijroga nisbatan 8,5 trln so'mga ko'pdir. Oliy ta'lim xarajatlari sohadagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda prognoz qilingan: 2026-yilgacha oliy ta'lim qamrovini 50% gacha oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash. [2]

Agar e'tibor ta'lim xarajatlariga qaratilsa, quyidagi rasmda 2023–2028-yillar kesimida oliy ta'limga ajratilayotgan mablag'lar dinamikasi keltirilgan. 2023-yilda oliy ta'limga 10 trln so'm xarajat qilingan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 15 trln so'mni, 2028-yilda esa 19 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim xarajatlari tarkibi, trln so'm [3]

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish oliy o'quv yurtlarining moliyaviy boshqaruvini yaxshilash yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy yechimlardan foydalanish boshqaruv hisobi, budgetlashtirish va moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa pirovardida moliyaviy resurslarni boshqarishni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv — bu moliyaviy hamda u bilan bog'liq iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga ularni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Kerakli natijaga erishish uchun obyektga maqsadli ta'sir ko'rsatish usullari va vositalari qo'llaniladi. Moliya tizimida moliyaviy mexanizm orqali hamda uning metodlari, ko'rsatkichlari, rag'batlantirish va jazolash vositalari yordamida moliyaviy boshqaruv amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlarining moliyaviy boshqaruv jarayoni davlat iqtisodiyotidagi moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida oliy o'quv yurtlari ushbu jarayonning passiv ishtirokchisi bo'lganligi sababli, bizningcha, oliy o'quv yurtlaridagi moliyaviy boshqaruv jarayoni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi moliyaviy boshqaruv tizimiga o'xshash tarzda qurilishi lozim.


Moliyaviy tartib-intizomni ta'minlash uchun moliyaviy boshqaruvning aniq standartlari va tartib-qoidalarini belgilash, shuningdek, oliy o'quv yurtlari moliya mutaxassislarini uchun o'quv dasturlarini tashkil etish zarur. Oliy o'quv yurtlari xodimlari orasida moliyaviy javobgarlik madaniyatini shakllantirish resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Shu bilan birga, "kraudfanding" texnologiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Uni yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni (shu jumladan innovatsion texnologiyalar, tadqiqotlar, texnologiyalar transferi va ijtimoiy loyihalarni) moliyalashtirishning yangi investitsiya vositasi sifatida baholash mumkin. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida kraudfanding texnologiyalaridan foydalanish orqali yosh olimlar va iqtidorli talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun maxsus jamg'armalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.



Ko'plab ilmiy va amaliy manbalarda ushbu investitsiya vositasidan ta'lim sohasida foydalanish eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida tan olingan. Olimlarning baholashicha, dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi 45 dan ortiq universitet kraudfanding texnologiyasidan foydalanmoqda. Bizningcha, ushbu texnologiyadan foydalanish respublikamiz oliy o'quv yurtlariga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish jarayonida kuzatilayotgan muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

O'tkazilgan tadqiqot oliy o'quv yurtlarining "moliyaviy boshqaruv mexanizmi" tushunchasiga mualliflik yondashuvini ishlab chiqish imkonini berdi (2-rasmga qarang). Bizning fikrimizcha, oliy o'quv yurtlarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmi — bu davlat va jamiyat tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish hamda uni o'tkazish mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish va sarflash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari va turlari, shuningdek, strategik hamda taktik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan usullar yig'indisidan iboratdir (2-rasm).



2-rasm. Moliyaviy boshqaruv mexanizmi

O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilar ko'zda tutilgan:

Oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasini yaxshilash, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga; oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash; kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy ishlarni olib borish hamda ularning natijalarini tijoratlashtirish, biznes-inkubatorlar va venchur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish; oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ish haqi tizimini takomillashtirish, samarali va shaffof moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish; iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining reytingi va xarajatlarni qoplash darajasini inobatga olgan holda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pullik kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, xarajatlar smetasini shakllantirish tartibi, ichki moliyaviy tekshiruv o'tkazish sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish faoliyatini takomillashtirish, bu jarayondagi korrupsiya holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlash.

Yana bir muhim qadam — oliy o'quv yurtlarining moliyaviy natijalarini monitoring qilish va baholash tizimini rivojlantirishdir. Muammolarni aniqlash hamda moliyaviy resurslarni boshqarishni yaxshilash maqsadida moliyaviy natijalarni doimiy ravishda monitoring qilish va baholash mexanizmlarini yaratish oliy o'quv yurtlarining moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oliy o'quv yurtlarining moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot bazasini rivojlantirish uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish



universitetlarga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 08.10.2019 yildagi PF-5847-son <https://lex.uz/docs/4545887>
2. Fuqarolar uchun byudjet loyiha 2024. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_24_ru.pdf
3. Fiskal strategiya 2026-2028 yillar uchun. https://api.mf.uz/media/filestore/fiskal_strategiya_2026-2028_4hxRGwi.pdf
4. Купро Е.Г. Проблемы финансирования высших учебных заведений в Российской Федерации // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. — № 21- 2007.
5. I. Liefner. Funding, Resource Allocation, and Performance in Higher Education Systems. – Dordrecht: Springer, 2003. – 215 p.
6. D. Bruce Johnstone. Financing Higher Education: Cost-Sharing in International Perspective. – Boston: Boston College Center for International Higher Education, 2004. – 180 p.
7. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 460 p.
8. P. Maassen, J. P. Olsen. University Dynamics and European Integration. – Dordrecht: Springer, 2007. – 228 p.
9. World Bank. Higher Education for Development: An Evaluation of the World Bank Group's Support. – Washington, D.C.: The World Bank, 2017. – 180 p.
10. UNESCO. Management of Higher Education with Special Reference to Financial Management. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 240 p.
11. N. Matveeva. Performance-Based Funding in European Universities: Outcomes and Risks. – Moscow: Higher School of Economics Press, 2021. – 198 p.
12. J. Salmi. The Challenge of Establishing World-Class Universities. – Washington, D.C.: The World Bank, 2009. – 126 p.
13. Аликаева М.В., Налчаджи Т.А. Направления преобразования системы финансового управления образовательными учреждениями // Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. — №2 (50). Номер статьи: 5001. Дата публикации: 08.02.2015. Режим доступа: <https://sovman.ru/article/5001/>
14. Махмудов А.А. Маҳаллий олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқаришга назарий ёндашув <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-alliy-oliy-talim-muassasalarida-moliyaviy-resurslarni-bosh-arishga-nazariy-yondashuv>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
